



**OLIY TA’LIM MUASSASALARI TALABALARINING IJTIMOIY-MADANIY  
KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH**

*Boyqo‘ziyeva Rano Karimovna,  
Farg‘ona politexnika instituti  
“Ijtimoiy fanlar va sport” kafedrasi o‘qutuvchisi*

**Annotatsiya.** Maqolada ijtimoiy-madaniy kompetentlikni shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari yoritilgan. Shuningdek oliy ta’lim muassasasi talabalarida ijtimoiy-madaniy kompetentlikni shakllantirishda muomala madaniyatining o‘rnii va zaruriy tomonlari taxlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Modernizatsiya, kompetentlik, muomala madaniyati, ijtimoiy-madaniy kompetentlik, tarkibiy komponentlar, faoliyat, muammo.

**Аннотация.** В статье описаны теоретико-методологические основы формирования социокультурной компетентности. Также проанализированы роль и необходимые аспекты культуры поведения в формировании социокультурной компетентности студентов высших учебных заведений.

**Ключевые слова:** Модернизация, компетентность, культура поведения, социокультурная компетентность, структурные компоненты, деятельность, проблема.

**Annotation.** The article describes the pedagogical and psychological problems of the formation of socio-cultural competence, as well as the formation of the sides of the culture of treatment in the formation of socio-cultural competence in the students of a higher educational institution.

**Keywords:** modernization, competence, socio-cultural competence, structural components, direction, problem.

## **KIRISH**

Prezidentimizning 2017 yil 7 fevraldaggi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmonida ijtimoiy soha, xususan, ta’lim va ilm-fan sohalarini rivojlantirish borasida bir qator vazifalar belgilangan. Ana shu vazifalar qatorida, mamlakatimiz ta’lim tizimini shaklan va mazmunan isloq qilish, uning huquqiy bazasini takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ta’lim-tarbiya mazmuni, shakl va samaradorligini oshirish borasida muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Chunki ta’lim tizimi jahon miqyosida o‘z o‘rniga ega, obro‘-e’tibor qozongan jamiyat barpo etish, mamlakatimizning demokratik taraqqiyotini ta’minlash va fuqarolik

jamiyatini shakllantirish, uni demokratlashtirish liberallashtirish, fuqarolarning siyosiy-huquqiy, ma’naviyaxloqiy, ijtimoiy ongi hamda dunyoqarashi darajasini oshirish, sog‘lom tafakkurli barkamol avlodni shakllantirish poydevori hisoblanadi.

Zamonaviy axborot jamiyatini modernizatsiya qilishni globallashuv jarayonisiz tasavvur etib bo‘limganidek, turli fanlarni rivojlantirish va yangi g‘oyalarni joriy etish jarayonini ijtimoiymadaniy hamkorliksiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Bu jarayonlar inson hayotining barcha sohalariga - kundalik, madaniy, ilmiy, siyosiy, iqtisodiy taalluqlidir. Inson hayoti davomida doimo turli madaniyat va urf-odatlar vakillari bilan duch keladi, ular do‘srlar, qarindoshlar yoki tanishlar bo‘lishi mumkin. Biroq, ular bilan muloqot qilish qiyin bo‘lishi mumkin, chunki har bir inson dunyoning o‘z idrokiga, madaniy xususiyatlariga va til to‘siqlari o‘rtasidagi farqga ega. Muloqotni muvaffaqiyatli qurish va samarali hamkorlikni amalga oshirish uchun bag‘rikenglik va g‘amxo‘rlik kabi fazilatlar, shuningdek, til muhitiga tezda moslashish qobiliyati talab qilinadi. Bularning barchasini “ijtimoiy-madaniy kompetentlik” umumiy atamasi bilan birlashtirilish mumkin.

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Psixologik va pedagogik adabiyotlarda “kompetentlik” tushunchasi keng tarqalgan. Turli olimlar bu tushunchani turli nuqtai nazardan ko‘rib chiqadilar. Bu sohada eng mashhur olim Edinburg universiteti professori, doktor Jon Raven bo‘ladi. U kompetensiyani “muayyan sohada muayyan harakatni samarali amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan maxsus qobiliyat va tor mutaxassislik, maxsus kasbiy qobiliyatlar, fikrlash usullari, shuningdek, ularning xatti-harakatlari uchun mas’uliyatni tushunish” deb ta’riflaydi. Kompetensiya - bu bilim va insonning amaliy faoliyati o‘rtasidagi munosabatlar sohasiga tegishli bo‘lgan tushunchadir. B.Yu.Elkoninning ta’rifiga ko‘ra, “kompetensiya - bu o‘z faoliyatini o‘z ichiga olgan paytdagi shaxsning malakaviy xarakteristikasi” [4; 56].

A.V.Xutorskiy, “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalarini ajratib, ularga quyidagicha ta’rif beradi[5; 13]. Kompetensiya - muayyan ob’yektlar va jarayonlar doirasiga nisbatan belgilanadigan va ularga nisbatan sifatli samarali faoliyat uchun zarur bo‘lgan shaxsning o‘zaro bog‘liq fazilatlari (bilim, ko‘nikma, malaka, faoliyat usullari) to‘plamidir. Kompetentlik - shaxsga tegishli vakolatga ega bo‘lish, unga va uning faoliyat mavzusiga shaxsiy munosabatini o‘z ichiga oladi. N.D.Galskova, N.I.Gezi ijtimoiy-madaniy kompetentlikni - “madaniyat muloqoti” deb ataydi, ya’ni ijtimoiy-madaniy muloqot sharoitida shaxsni madaniy muloqotini amalga oshirishga imkon beradigan qobiliyati sifatida belgilaydi [2; 13].

Uning shakllanishi muloqotni rivojlantirish va insonning madaniy tajribasini rivojlantirish bilan bog‘liq bo‘lib, unda insonning o‘ziga, dunyoga bo‘lgan munosabatini, shuningdek, ijodiy faoliyat tajribasini ajratish mumkin. L.I.Korneyeva “ijtimoiy-madaniy kompetentlik - boshqa shaxsni tushunishni va uning fikrini qadrlashni o‘rgatadi, ya’ni inson madaniyat ta’sirida boshqa odamni idrok etadi, fikrlaydi, baholaydi va shu asosda faoliyatning yangi sxemasini quradi” - deb hisoblaydi [3; 640]. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ta’lim jarayonida

talabalar o‘quv-bilish kompetentligini rivojlantirish va kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish muammolari bo‘yicha Respublikamiz va xorijiy ko‘plab olimlar tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan. Jumladan, N.A.Muslimov va K.Abdullayevalarning fikricha, kompetentlik – olingan nazariy bilim, ko‘nikma va malakalar majmuasini amaliyatga mustaqil va ijodiy qo‘llay olish darajasi, bu ham talabaning amaliyat jarayonida va oliy ta’limdan keyingi faoliyatida shakllanib boradi. Taniqli pedagog olim A.R.Xodjaboyev ta’kidlaganidek, “oliy o‘quv yurtlari, maktablar va hunar-texnika bilim yurtlarining ta’lim jarayonida qo‘llanilayotgan dastgohlar, agregatlar, asbob-uskunalar, mashina va mexanizmlar nafaqat ishlab chiqarish vositalari sifatida, balki birinchi navbatda ta’lim vositalari sanaladi, talabalar ular yordamida kasbiy ko‘nikma va malakalarini hosil qilish va mustahkamlash imkoniyatlariiga ega bo‘ladilar”. Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda kasbiy o‘zini o‘zi boshqarish jarayonida shaxsning kasbiy rivojlanishining eng to‘liq psixologik shakllari, kasbiy kompetentlikning rivojlanish xususiyatlari E.F.Zeyer tomonidan o‘rganilgan. Kasbiy kompetentlikni kasbiy faoliyat tuzilmasining asosiy tarkibiy qismlaridan biri sifatida baholaydi, shuningdek, shaxsning yo‘naltirilganligi, kasbiy jihatdan muhim fazilatlari va psixofizologik xususiyatlari mavjud.

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

Bu madaniyatlararo o‘zaro tushunishda, boshqa madaniyat vakillarining xulq-atvoriga kommunikativ moslashishda, turli madaniyatlarning qadriyatlari va me’yorlariga asoslangan yangi xulqatvorni egallashda namoyon bo‘ladi. E.N.Solovova “ijtimoiy-madaniy kompetentlik - shaxsni xalqaro darajada tarbiyalash uchun bir vosita ekanligini qayd etib, nafaqat ta’lim-tarbiya jarayonida balki, talabalar ijtimoiy tajribasini orttirib, boshqa mamlakat an’analari, qadriyatlari to‘g‘risida ma’lumot olishni ham belgilaydi” – deb ta’kidlaydi[1; 84].

Shuning uchun ham ijtimoiy-madaniy kompetentlik ta’lim jarayoni bilan uzviy bog‘liqdir. Ijtimoiy-madaniy kompetentlik to‘rtta asosiy komponentdan tashkil topgan: 1) ijtimoiy-madaniy bilim (ma’naviy qadriyatlar, urf-odatlar va madaniy an’analari, milliy mentalitetning o‘ziga xos xususiyatlarini bilish); 2) aloqa tajribasi (ijtimoiy-madaniyat uslubini tanlash, xorijiy madaniyat hodisalarini to‘g‘ri talqin qilish); 3) madaniyatga (shu jumladan, muloqot paytida yuzaga keladigan nizolarni bartaraf etish va hal qilish qobiliyati) hissiy jihatdan munosabat; 4) axloq qoidalarini qo‘llash usullarini bilishb ijtimoiy etiketdan to‘g‘ri foydalanish. Bizning fikrimizcha, ijtimoiy madaniyat, ijtimoiy-madaniy kompetentlik ma’naviy-axloqiy fazilatlarning poydevori hisoblanib, ijtimoiy madaniyat ko‘nikmalari yoshlikdan tarkib toptirilsagina, bu poydevor barqaror bo‘ladi. Shuningdek, bo‘lajak pedagoglarning shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi omilga aylanadi. Zero, ma’naviyaxloqiy fazilatlar tarkibida muomala munosabat madaniyati alohida o‘rin tutadi. Ta’lim muassasasida o‘quvchi-yoshlarga oila, mahalla muhitidan tashqarida dastlabki muomala, munosabat muammolariga duch keladi. Aynan ta’lim muassasasida muomala madaniyatini izchil va uzviylikda, ta’lim-tarbiya qonuniyatlariga asoslangan xolda shakllantirish amalga oshirilishi zarur. Ya’ni oila, mahalla tarbiyaviy ta’siridan farqli professional ta’sir ko‘rsatiladi. Shuningdek, tarbiyada milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligiga erishiladi. Ya’ni, oilada, mahallada milliy qadriyatlar,

mahalliy urf-odatlar tarbiyasi ustuvor bo‘lsa, ta’lim muassasasida dastlabki umuminsoniy qadriyatlar va muomala madaniyati bo‘yicha tushuncha, ko‘nikmalarini shakllantirish yo‘nalishida ham ish olib boriladi. Kompetentlikka yo‘naltirilgan yondashuv – ta’lim mazmunini rivojlantirish uchun yangi konseptual qo‘llanmalardan biridir. Zamonaviy o‘qituvchilarining fikrlariga ko‘ra, hayotiy kompetensiyalarni egallah insonga, zamonaviy jamiyatda sayr qilish imkoniyatini beradi, insonning vaqt talablariga tezda javob berish qobiliyatini shakllantiradi. “Kompetensiyaviy yondashuv” atamasi bir kishining asosiy (kalit, yadrosi) va sub’yekt kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha o‘quv jarayonining markazini anglatadi. Ushbu jarayonning natijasi insonning umumi kompetensiyasini shakllantirish, asosiy kompetensiyalar majmuasi, shaxsning integrativ tavsifnomasidir. Bunday xarakterga ega bo‘lish ta’lim jarayonida shakllanishi va bilim, ko‘nikma, munosabatlar tajribasi, faoliyat tajribasiga ega bo‘lishi kerak. Ta’lim sohasidagi kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning dolzarb yondashuvlari bilan bog‘liq, chunki u talaba shaxsiga taalluqli va muayyan harakatlar to‘plamini bajaradigan muayyan talab jarayonida amalga oshirilishi va tekshirilishi mumkin. Kompetensiya – ma’lum bir sohada samarali faoliyat olib borish uchun zarur bo‘lgan mutaxassisning ta’limiy tayyorgarligiga qo‘ylgan talabdir. Kompetentlik – inson tomonidan faoliyat predmetiga tegishli kompetensiyalarini egallanganligidir. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda biz kompetenlikka o‘z ishchi ta’rifimizni berib o‘tdik. Kompetentlik – shaxsning bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq xususiyatlarini inson tomonidan jumladan, shaxsiy munosabati va faoliyat sub’yektini o‘z ichiga olib egallanishidir.

## **XULOSA**

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ilmiy tadqiqot ishimiz doirasida oliv ta’lim muassasasi talabalarida ijtimoiy – madaniy kompetentlikni shakllantirishda avvalambor muomala madaniyatining quyidagi qirralari shakllantirilishi kerakligini aniqladik: - talabalar va pedagoglar o‘rtasidagi munosabat; - talabalar o‘rtasidagi salomlashish munosabati; - ijtimoiy foydali mehnat jarayonidagi munosabat; - mashg‘ulotlar jarayonidagi munosabatlar; - bo‘lajak pedagoglarning xulq-atvor ko‘nikmalarini shakllantirish; -ommaviy ishlar jarayonida rasmiy munosabatning elementlarini shakllantirish; - hamkasblar o‘rtasidagi munosabat; - minnatdorchilik bildirish. Yuqorida keltirilgan olimlarning ilmiy g‘oyalarining tahlili asosida aytish mumkinki, talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetentligi ijtimoiy-madaniy bilim, o‘rganilayotgan til, ma’naviy qadriyatlar va madaniy meros, aloqa tajribasi, tilni qo‘llash usullarini bilish jarayonida shakllanadi va namoyon bo‘ladi.

## **ADABIYOTLAR RO‘YXATI.**

- Соловева, Н. И. Роль страноведческих знаний в формировании социокультурной компетенции. 2015 г. 84 с.

2. Сафонова, В.В. Сосиокультурный подход: основные социалнопедагогические и методические положения / В.В. Сафонова // Иностранные языки в школе. – 2014. – №11. – С. 2–13.
3. Пидкасистый, П.И. Педагогика: учеб. пособие для студентов педагогических вузов и педагогических колледжей / П.И. Пидкасистый//. – М: Педагогическое общество России, 1998. – 640 с.
4. Элконин Д.Б. Понятие компетентности с позицией развивающего обучения. - Красноярск. - 2002.56-с.
5. Хуторский А.В. Ключевые компетентности как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования // Народное образование. - 2003. - № 2.13-с.